

MAHMUD ZAMAXSHARIYNING BALOG'AT ILMIGA QO'SHGAN HISSASI

Bakirov Begzod

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqola Mahmud Zamaxshariyning balog'at ilmiga qo'shgan hissasiga bag'ishlangan bo'lib, unda bu ilmda kiritgan yangiliklari va bu boradagi badiiy san'atlardan qanday mohirona foydalanganligini ko'rib chiqdik.*

Kalit so'zlar: *balog'at ilmi, Al-kashshof, fasohat, Asosul-balog'a, nasriy saj, ilmul maoniy, ilmul bayon, ilmul badi'.*

Xorazm zaminida azaldan jahon fani va madaniyati rivojiga munosib hissa qo'shgan ko'plab buyuk allomalar yetishib chiqqan. Abul Qosim Zamaxshariy ana shunday ulug' siymolardan biridir. Hayotligidayoq “Dunyoning ustoz”, “Ollohning qo'shnisi”, “Adiblar ka'basi”, “Arablar va ajamlar ustoz”, “Xorazm faxri”⁴² kabi sharafli nomlarga sazovor bo'lgan alloma, benazir inson, yurtimiz faxri, ko'hna Xorazm farzandi Mahmud Zamaxshariy jahon fani va madaniyati rivojiga o'zining o'lmas merosi bilan ulkan hissa qo'shgan.

Mahmud Zamaxshariy hayoti bilan chuqur tanishar ekanmiz, uning ilm talabida qator xorijiy mamlakatlarga safar qilganligini ham ko'ramiz. Darhaqiqat u Xuroson, Shom, Iroq, hijozda bo'lganligi yozma manbalarda qayd etilgan. Mana shu yurtlarda bo'lganida u o'sha davrning ko'p mashhur olimlaridan saboq oldi, ular bilan ilmiy, ijodiy munozaralarda ishtirok qildi, do'stona samarali hamkorlik iplarini bog'ladi⁴³.

Balog'at ilmining mukammal ilm darajasiga yetishida "Al-kashshof"⁴⁴ asari muallifi Xorazm vohasining Zamaxshar qishlog'ida (Zamaxshar qishlog'i hozirgi Turkmaniston jumhuriyati Toshhovuz shahridan 30 chaqirim uzoqlikda joylashgan) 467 hijriy sanada tavallud topganlar va 538 hijriy sanada vafot etgan Zamaxshariyning o'rmi beqiyosdir. Ham grammatika, ham tafsir, ham balog'atga oid “Al-Kashshof” asari o'z bobida yagona va benazir asar hisoblanib, unda Qur'on oyatlarini balog'at ilmi talablari, aniqrog'i uning eng nozik va his qilish qiyin bo'lgan qirralarigacha hisobga olib tafsir qilingan. Shuning uchun bu tafsirga “...Zamaxshariygacha va undan keyin bu tafsir kabi mukammal tafsir yozilmagan”, – deb baho berilgani haqida Shavqiy Dayf qayd etadi.

Alloma ta'lif etgan 70 dan ortiq⁴⁵ asarlari orasida balog'at ilmini o'rganishda “Asosu-l-balog'a” (ar. أساس البلاغة) asari va nasriy saj' uslubida yozilgan, asosan hikmatlar, pand-nasihahat va o'g'itlar majmuasi bo'lgan “Navabig'u-l-kalim” asari muhim ahamiyatga ega. Boshqa so'zlar bilan aytganda, “Asosu-l-balog'a” («Chechanlik poydevori») asari arab tilining izohli lug'ati bo'lib, u Qohirada ikki jild qilib bosilgan⁴⁶.

⁴² <http://xorazmiy.uz/uz/pages/view/454>

⁴³ <https://kukaldosh.uz/28/02/2018/603>

⁴⁴ Al-kashshofu 'an haqiqi g'avomizu-t-tanzil va 'uyunu-l-aqovil fi vujuhi-t-ta'vil (Qur'ondagi berk haqiqatlar ochqichi va izohlash yo'llari haqida rivoyatlar ko'rsatkichi). Qisqacha “Al-kashshof” deb ataladigan bu asar Qur'on tafsiriga bag'ishlangan. Zamaxshariy bu asarda Qur'onning filologik tahliliga ko'proq e'tibor berganligi uchun uning filologik qiymati juda katta. Asar Misrda nashr etilgan.

⁴⁵ Z. Islomov, S. Saidjalolov. Mahmud Zamaxshariy va fiqh ilmi. – T.: “Movarounnahr”, 2011. – B 8

⁴⁶ Rustamov Alibek. Mahmud Zamaxshariy. Toshkent, Fan, 1971. 32 bet, 10-b.

Mahmud Zamaxshariyning balog'at ilmiga qo'shgan hissasi haqidagi ma'lumotlarni o'rganadigan bo'lsak, olimning bu ilmga qo'shgan ulushining naqadar beqiyosligiga guvoh bo'lamiz. Ulardan muhim jihatlarini keltirib o'tsak. Abdulqohir Jurjoniylar balog'at ilmini tarkibiy qismlariga ajratgan birinchi olim bo'lsa, Zamaxshariy o'sha tarkibiy qismlarning mavzularini yanada kengaytirib Qur'on oyatlari asosida sharhladi. Zamaxshariy maoniy va bayon ilmlarini bilish Qur'onni tafsir qilishda nechog'lik zarurligini "Kashshof" misolida isbotlab berdi. U Abdulqohir Jurjoniylarning "nazm" yoki "uslub" ilmi degan atamasini rad etib o'rniga "maoniy" ilmi atamasini qo'lladi. "Bayon" so'zini ishlatishda Jurjoniylar ikkilangan bo'lsa, Zamaxshariy qat'iy nom qilib belgilagan⁴⁷. Zamaxshariy badi' ilmi maoniy va bayon ilmlariga qo'shimcha emas, balki alohida ilm ekanini isbotlab, uning mavzularini belgilashi, ularni oyatlar bilan yanada boyitish natijasida balog'at ilmi uch tarkibiy qism: bayon, ma'oniylar va badi'ga ajratdi.

Allomaning mazkur tafsiri juda qimmatli asar sanaladi. Unda Qur'onning balog'at, fasohat tomonlarini juda nozik uslubda nahv, sarf, lug'at, she'r ilmlariga tayanib, so'zlarning bir nechta ma'nolarini keltirib o'tgan. Alloma shu tariqa oyat mazmunini zo'r mahorat bilan ochib bergan. Asar o'zidan keyingi ko'plab tafsir kitoblariga manba vazifasini o'tagan.

«Kashshof» asari Zamaxshariy Makkada turgan paytida, uch yil davomida (1332-1334) yozilgan.

Zamaxshariy oyatlarni avval grammatik jihatdan tahlil etib, so'ng yetti turdagi qiroatlardan foydalangan holda zaif qiroatlarni aniqlagan, o'qilishiga ko'ra so'z ma'nosining o'zgarishini ko'rsatgan. Tafside olimning ham o'z ijtihodini ishlatishini ko'rish mumkin.

U ko'proq Ibn Abbos, Ibn Mas'ud, Anas ibn Molik, sahobalar so'zlari va ularning qiroatlaridan, Mujohid, Abul Oliyalar kabi tobiinlar rivoyatlaridan istifoda etgan.

Zamaxshariy fiqhiy masalalarni Abu Hanifa mazhabiga ko'ra yechishi bilan birga ko'pincha boshqa faqih mujtahidlarning so'zlari, ijtihodlaridan keltirib o'tadi.

U Ibrohim an-Naxa'iy, Omir Sha'biy kabi sahobiylardan keyin yashagan faqihlardan shuningdek, ulardan keyingi davr faqih, mujtahidlaridan Abu Hanifa Abu Yusuf, Shofe'iy, Molik, Avzo'ylarning so'zlarini keltiradi.

Ba'zan faqihlarning biror bir fiqhiy masala bo'yicha turlicha qarashlarini ketma-ket keltirib o'tadi. Oyatlarni sharhlash asnosida mavhumlikni ketkazish uchun ko'plab savollar berib, keyin ularga o'zi javob bergan. Shu tariqa unda savol-javob uslubi boshqa tafsirlarga nisbatan ko'p qo'llanilgan.

Demak, «Kashshof» Qur'on tafsirlari ichida arab tili imkoniyatlaridan kelib chiqib, eng puxta sharhlangan, balog'at va fasohat qoidalari maromiga yetkazib berilgan, mukammal asar hisoblanadi. Unda ochiq uslubdagi savol-javoblar qo'llanilgan. Hatto ushbu tafsir haqida ulamolar: «Kashshof» bo'lmaganida Qur'onni karimning ma'nolari kashf bo'lmay qolardi, deyдилar.

«Kashshof»dan ko'plab mufassirlar o'z tafsirlarini yozishda foydalanganlar, jumladan Nasafiy, Bayzoviy kabilarni, shuningdek Xoja Muhammad Porsoni ham aytib o'tish mumkin.

Nemis sharqshunosi qarl Brokkelman dunyoning turli qo'lyozma xazinalarida «Kashshof»ning yuzga yaqin qo'lyozmalari va asarning o'ziga bitilgan yigirmadan ortiq sharh va

⁴⁷ Zabixullayev Nuriddin. Magistr dissertatsiyasi. Arabcha hikmatli so'zlar tarjimasida shakl va mazmun birligi, Toshkent, 2012

hoshiyalar borligi haqida yozishi Zamaxshariy asarining katta shuhratidan dalolat beradi.

Qohiradagi butun dunyoga mashhur Azhar diniy dorulfununining talabalari ham Zamaxshariyning «Kashshof» asari asosida Qur'onni o'rganadilar⁴⁸.

1988 yilda Muhammad Muhammad Abu Muso tomonidan “Zamaxshariy tafsirida Qur'oniy balog'at ilmi va uning balog'at ilmiga oid tadqiqotlarga ta'siri” nomli tadqiqot nashr etildi (Muhammad Abu Muso, 1988:92).

2002 yilda Iordaniyaning Muta universitetida Zohir Tavfiq Abu Keshk tomonidan “Zamaxshariyning “Kashshof” tafsirida balog'at ilmi va dalolat ilmiga oid yondashuvlar” nomli tadqiqot nashr qilindi (Abu Keshk, 2002:16).

Oxirgi yillarda Iroqning Mo'sul universitetida Abdulloh Sulaymon Muhammad Adiyb tomonidan “Zamaxshariy tafsiridaga Qur'on qirotlarida lug'aviy va grammatik yondashuv” nomli tadqiqot chop etildi (Adiyb, 2002:103).

2002 yilda Bag'dod universitetida Sa'dun Ahmad Ali bilan kashshofshunoslik borasida noyob tadqiqot nashr etildi. “Farroning “Qur'on ma'nolari” tafsiri va Az-Zajjajning Qur'on ma'nolari va e'robi asarining Zamaxshariy “Kashshof” tafsiriga ta'siri” deb nomlangan mazkur nashrda muallif “Kashshof” tafsirida ta'siri ko'zga tashlangan boshqa tafsirlar haqida tahliliy fikr yuritadi (Sa'dun, 2002:127).

Mahmud Zamaxshariy o'z asarlarida badiiy tasvir vositalariga qisqa, lekin aniq va nozik izohlar beradi. Masalan, “kinoya” bilan “ta'riz” san'atlar bir jihatdan bir-biriga o'xshab ketadi. Shuning uchun ba'zi filologlar bu ikki san'atni bir san'at deb ko'rsatadilar. Mahmud Zamaxshariy esa bular orasida farq borligini ko'rsatib “Biror narsani o'z nomi bilan emas, boshqa so'z bilan atasang, bu kinoyadir” deydi va misollar keltiradi.⁴⁹

Hikmatda esa biror maqsadni aniq aytmasdan shunga ishora qilinadi. Masalan, bir muhtoj hojat bilan, bironing oldiga kelib o'z hojatini aniq aytmasdan, “Sahovatli yuzingni bir ko'ray deb keldim” desa, bu ta'rizdir⁵⁰, deydi Zamaxshariy. Mahmud Zamaxshariyning badiiy vositalardan foydalanish masalasidagi fikrlardan biri uning badiiy vosita asl ma'no va til qoidalarga mos bo'lishi kerak, degan fikridir.

Zamaxshariy arab maqollarini yig'ib o'rganish borasida ham katta ilmiy-tadqiqot ishlarni bajardi. U “Al-mustaqsho fi amthal al-arab” (ar. المستقصى في أمثال العرب) asarini yozdi. Bu asarda uch yarim mingga yaqin arab maqollari “alifbo” tartibida berilib, izohlangan.

Mazkur asarda Zamaxshariy maqollarining ma'nosinigina izohlab qolmasdan, ularning tarixi, vujudga kelish sabablarini batafsil tushuntiradi. Ba'zi maqollarning ishlatilishiga misol qilib she'riy va nasriy parchalar keltiradi. Masalan, Zamaxshariy ضرب أخماساً لأسداس (nayrang ishlatmoq) maqoliga shunday izoh beradi: “أخماس” ni “أسداس” ga o'tkazmoq, “Axmas” va “Asdas” tuya sug'orishdagi. “Xims” (besh kunda bir sug'orish)ning ko'pligidir. Bu maqolning kelib chiqishi shunday: uzoq safarga o'tlanadigan kishi tuyasini suvsizlikka chidashga o'rgatadi. Sug'orishni sekin-asta kamaytirib borib oxiri nuqtaga yetkazgandan keyin cho'lga kiradi; tuya

⁴⁸ <https://moturidiy.uz/uz/news/362>

⁴⁹ Zabixullayev Nuriddin. Magistr dissertatsiyasi. Arabcha hikmatli so'zlar tarjimasida shakl va mazmun birligi, Toshkent, 2012

⁵⁰ «Ta'riz»ni bizning tilimizda ishora qilib gapirish ma'nosida tushuniladi. Ma'orizning ma'nosi bir so'zning o'rniga boshqa so'z ishlatib, asl maqsadni ochiq aytmay, yashirib gapirishdir. Bu ma'noni «ma'oriz» ham deyiladi. Bunga o'xshash ma'nolarning barasi bir o'zakdan chiqqan so'zlardir. Quro'ni Karimda ham «ta'riz» ila so'vchilik qilish haqida oyat kelgan..

chidaydi. U avval besh kunda bir sug'orsa, keyin olti kunda bir suv berishga o'tadi...⁵¹.

Mahmud Zamaxshariydan keyingi olimlar «Asosu-l-balog'a» asarida tilni buzmaydigan, aksincha go'zallashtiradigan so'z va iboralar tanlangani; ibora va jummalarni tuzish usullari bilan tanishtirilgani; jumalarda so'zlarning haqiqiy ma'nosi majozisidan ajratib berilgani kabi uchta muhim xususiyatni ko'rsatadilar. Asarda so'zning avval asl, so'ngra majoziy ma'nolari bayon qilinadi. Masalan: «ث ق ب» o'zakli maqolani undan yasalgan tub so'z تَقَبَّ (teshmoq, yormoq) bilan boshlab, بِمَثَبِ الشَّيْءِ بِالمَثَبِ (biror narsani burg'i bilan teshmoq) tarzida bu so'zning asl ma'nosini keltiradi. So'ngra «ث ق ب» o'zagidan فَعَّلَ vaznida yasalgan fe'l va bu fe'lning sifatdosh shakllarini va ularning asl ma'nolarini وَثَّقَ اللَّالِ الدَّرَّ، وَدُرُّ مَثَبِ (durfurush durni teshdi, teshilgan dur) misollari orqali ifodalaydi. Bulardan so'ng مِنَ المَجَازِ (majozda) ta'kidi bilan uning «porlamoq, charaqlamoq» kabi majoziy ma'nosiga كَوَّكَبَ ثاقِبٍ وَدَرِيٍّ (charaqlagan yulduz, porlagan dur) misollarini keltiradi va buni يَثْقُبُ الظُّلْمَةَ فَيَنْفِذُ فِيهَا وَيَدْرُؤُهَا (yorug'lik va yog'duning ko'pligi, go'yo u qorong'ilikni yorib, unga kirib borishi va (zulmatni) yo'qotishi kabi) tarzida izohlaydi⁵².

Mahmud Zamaxshariyning «Asosu-l-balog'a» («Notiqlik asoslari») asari asosan lug'atshunoslikka bag'ishlangan. Unda arab tilining fasohati va mukammaligi haqida so'z boradi. Fikrni chiroyli ibora va so'zlar bilan ifodalash, so'z boyligidan o'rinli va ustalik bilan foydalanish uchun kishi fasohat va balog'at ilmlaridan yaxshi xabardor bo'lishi kerak edi. Buning uchun so'zni to'g'ri, o'z o'rnida ishlatish, qoidaga muvofiq so'zlash va yozish ham kerak bo'lgan. Bu asarda adabiyotning asosiy qismlari, frazeologik so'z birikmalari va ularni amalda tatbiq etish yo'llari chuqur tahlil etilgan⁵³.

Zamaxshariyning «Asosu-l-balog'a»dagi asosiy yutug'i bu ungacha mavjud bo'lgan, lekin mukammal bo'lib ulgurmagani usul, ya'ni lug'atda barcha o'zak undoshlarni hisobga olgan holda so'zlarni qat'iy alifbo tartibida berish usulini takomillashtirilgan ekanligidir. Shuning uchun ham Zamaxshariy arab lug'atshunosligida birinchi bo'lib alifbo tizimini yo'lga qo'ygan lug'atshunos hisoblanadi⁵⁴. Hozirgi kunda bu usul sal o'zgargan shaklda leksikografiyada ham qo'llanilmoqda. So'zlarni izohlashda ham Zamaxshariy ko'p ishlar qilgan. U so'zlarning asl ma'nosini berib, shu ma'noni tasdiqlovchi misollar keltiradi, so'zning qaysi iborada qanday ma'noda qo'llanishiga e'tibor beradi, so'z ko'chma ma'nolarining paydo bo'lish sabablarini ko'rsatib beradi. Mazkur arab lug'atshunosligiga bag'ishlangan «Asosu-l-balog'a» asarida fikrni chiroyli ibora va so'zlar bilan ifodalash, lug'at boyligidan o'rinli va g'oyatda mohirlik bilan foydalanish kabi masalalar mukammal ravishda o'z ifodasini topgan. Bu qimmatli asar ham arab mamlakatlarida bir necha bor nashr etilgan va qo'lyozma nusxalari Sharqning ko'plab shaharlarida saqlanadi.

Bugungi zamaxshariyshunoslikning taraqqiy etishida alloma merosiga o'z ilmiy faoliyatining asosiy qismini bag'ishlagan professor Zohidjon Islomov xizmatlarini alohida qayd etish zarur. So'nggi yillarda fil.f.d. prof. Zohidjon Mahmudovich Islomov tomonidan alloma merosining barcha qirralarini qamrab olishga qaratilgan tadqiqotlar olib borildi, kitoblar va risolalar chop etildi, maqola va ko'rsatuvlar taqdim etildi, nomzodlik dissertasiyalari himoya

⁵¹ Rustamov Alibek. Mahmud Zamaxshariy. Toshkent, Fan, 1971. 32 bet, 15-b.

⁵² أبو القاسم محمود بن عمرو بن أحمد، الزمخشري. أساس البلاغة. بيروت لبنان: دار العلمية، 1998. ص. 110.

⁵³ Uvatov Ubaydulla. Mahmud Zamaxshariy/U. Uvatov.-T.: «O'zbekiston», 2011.-48 b., 27-b

⁵⁴ Rustamov Alibek. Mahmud Zamaxshariy. Toshkent, Fan, 1971. 32 bet, 12-b.

qilindi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida Zamaxshariyning 90 dan ortiq asari borligi, ulardan 40 tasi dunyoning turli fondlarida saqlanayotgani ma’lum bo’ldi⁵⁵.

Professor Z.Islomov kabi fidoyi olimlarimiz mehnati samarasi o’laroq, keyingi paytda o’zbek zamaxshariyshunosligi yangi bosqichga ko’tarildi, chunki yuqorida aytib o’tilganidek - ko’plab tadqiqotlar olib borildi, kitoblar va risolalar chop etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Уватов У. Абу-л-Қосим Маҳмуд Аз-Замахшарий. Нозик иборалар. - Т.: Камалак, 1992.
2. Саъдуддин ат-Тафтазоний. Ан-Ниъам ас-савобиғ фи шарҳ ин-навобиғ.
3. Али Муҳаммад Ҳасан. Асрор ул-баён. - Қоҳира, 2005.
4. Rustamov Alibek. Mahmud Zamaxshariy. Toshkent, Fan, 1971. 32 bet, 15-b.
5. أبو القاسم محمود بن عمرو بن أحمد، الزمخشري. أساس البلاغة. بيروت لبنان: دار العلمية، 1998. ص. 110.
6. <http://xorazmiy.uz/uz/pages/view/454>
7. Uvatov Ubaydulla. Mahmud Zamaxshariy/U. Uvatov.-Т.: « O‘zbekiston», 2011.-48 b., 27-b
8. Rustamov Alibek. Mahmud Zamaxshariy. Toshkent, Fan, 1971. 32 bet, 12-b.
9. Z.Islomov, S.Saidjalolov. Mahmud Zamaxshariy va fiqh ilmi. - Т.: “Movarounnahr”, 2011. - В 8

⁵⁵ S.S.Saidjalolov, maqola, Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosining asosiy jihatlari tadqiqi, Islom nuri jurnali. 2021 yil 4-soni,3-maqola